

Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida 2237 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1333 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4912 ta (15,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 31681 tani tashkil etgan.












Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1612	1592	66
 Sanoat	6745	6696	472
 Qurilish	2583	2555	120
 Savdo	7538	7432	1220
 Tashish va saqlash	1259	1246	72
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1504	1494	147
 Axborot va aloqa	1008	993	15
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	718	705	10
 Boshqa turlari	8714	8538	115



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1-mart holatiga 31681 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,3 % sanoatda, 8,2 % qurilishda, 23,8 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % axborot va aloqa 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5761 ta), Qo'qon shahri (4315 ta), Marg'ilon shahri (3147 ta) va Uchko'priq tumani (1684 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (753 ta), Furqat tumani (750 ta) hamda Yozyovon tumani (701 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, *mingda*.





✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **31251** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4482 ta (16,7 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,8 % savdo, 21,4 % sanoat, 8,2 % qurilish, 5,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 3,2 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5657 ta), Qo'qon shahri (4261 ta), Marg'ilon shahri (3134 ta), Uchko'prik tumani (1638 ta) va Dang'ara tumani (1465 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (753 ta), Furqat tumani (744 ta) hamda Yozyovon (699 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.03.2017 y.

• 24,0 ming

01.03.2018 y.

• 26,3 ming

01.03.2019 y.


• 31,3 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2019-yil 1-mart holatiga 2237 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2.5 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (311 ta), Qo'qon (258 ta), Marg'ilon (242 ta) shaharlarida, Oltiariq (121 ta), Uchko'prik (135 ta) va O'zbekiston (119 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (33 ta) hamda Yozyovon (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (472 ta), savdoda (1220 ta), qurilishda (120 ta), tashish va saqlashda (72 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (147 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (66 ta), axborot va aloqada (15 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	780	100	904	100	2237	100
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	59	7,6	50	5,5	66	3,0
Sanoat	299	38,3	230	25,4	472	21,1
Qurilish	64	8,2	83	9,2	120	5,4
Savdo	144	18,5	157	17,4	1220	54,5
Tashish va saqlash	48	6,2	32	3,5	72	3,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	51	6,5	46	5,1	147	6,6
Axborot va aloqa	33	4,2	22	2,4	15	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13	1,7	33	3,7	10	0,4
Boshqa turlari	69	8,8	251	27,8	115	5,1

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni






TIJORAT KORXONALARI.

2019-yil 1-mart holatiga 25541 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9142 ta, oilaviy korxonalar – 3085 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 12641 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 53 tani va boshqalar 622 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-mart holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 307 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 95 taga yoki 44,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 220 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalaridan 220 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 105 ta (34,5 %), Qo'qon 45 ta (14,7 %), Marg'ilon 21 ta (6,8%), Quvasoy 18 ta (5,9 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 16 ta (5,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,7 %), Furqat tumani 3 ta (1,0 %), Qo'shtepa tumani 4 ta (1,3 %), Bag'dod tumani 6 ta (2,0 %), Buvayda tumani 5 ta (1,6 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 194 ta (63,2 %), savdoda 44 ta (14,3 %), boshqa turlarida esa 15 ta (4,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 4 ta (1,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 14 ta (4,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatishda 7 ta (2,3 %), qurilishda 8 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 8 ta (2,6 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (4,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 24 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga ko'paygan yoki 2.4 martaga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Rossiya Federatsiyasi - 5 ta, J.Koreya Respublikasi - 4 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 1 ta, Germoniya-1, Qozog'iston- 1 ta, Latviya – 1, Buyuk Britaniya – 1, Ozarbayjon -1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2019 yil yanvar-fevralda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, savdoda 4 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**


	2018-yil yanvar-fevral		2019-yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi			5	20,8
Sanoat	7	70	10	41,7
Qurilish	1	10	1	4,2
Savdo	2	20	4	16,7
Tashish va saqlash			2	8,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			1	4,2
Axborot va aloqa				
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				
Boshqa turlari			1	4,2



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-mart holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-mart holatiga qaraganda 24,3 % ga oshgan. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4720 tasi (18,4%) Farg'ona, 3732 tasi (14,5 %) Qo'qon, 2299 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1425 tasi (5,6 %) Uchko'prik va 1239 tasi (4,8 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 25662 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7509 tasi (29,3%) - savdoda, 6700 tasi (26,1%) - sanoatda, 2567 tasi (10,0 %) - qurilishda, 1555 tasi (6,1 %) - qishloq,

o'rmon va baliq xo'jaligida, 1495 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1245 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 1006 tasi (3,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 528 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3057 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 2187 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,5 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (298 ta), Qo'qon (258 ta), Marg'ilon (241 ta) shaharlarida, Oltiariq (117 ta) va Buvayda (120 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (32 ta), Beshariq (67 ta) hamda Qo'shtepa (68 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1220 ta), sanoatda (472 ta), boshqa turdagi xizmatlar (78 ta), qurilishda (119 ta), tashish va saqlashda (72 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (54 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (147 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (15 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





 **Oilaviy korxonalar soni**




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-mart holatiga 3114 tani tashkil etib, ulardan 3085 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 34,9 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 46,4 % yoki 1431 tasi sanoat, 13,8 % yoki 427 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 541 tasi savdo, 8,6 % yoki 264 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 70 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 29 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 36 tasi qurilish, 0,9 % yoki 24 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,5 % yoki 263 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.